


XALQARO REYTING DARAJASI «BARQAROR»


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida banklar ishini yanada takomillashtirish, moliya muassasalarini ishlab chiqarish tarmog'iga va ijtimoiy sohani qo'llab quvvatlashga jalb etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan zamonaviy bank tizimini shakllantirishga, uni xalqaro me'yorlarga mos ravishda rivojlantirish va erkinlashtirish, uning mamlakat pul-kredit siyosatidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan izchil chora-tadbirlari bunday vaziyatda alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Kapital va aktivlar hajmi jihatidan O'zbekistonda yirik banklardan biri bo'lgan «Asaka» davlat-aksiyadorlik tijorat banki o'z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakat moliya xizmatlari bozorida etakchi mavqega ega bo'lib, bu mavqeyini uzluksiz rivojlantirib saqlab kelmoqda. Bank jamoasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga, mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, shuningdek, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga bank xizmatlarini hamda mahsulotlari turlarini kengaytirish vazifasini qo'ygan bo'lib, shu maqsadda har bir mijozning individual talabidan kelib chiqib, asosiy e'tiborni ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda.

Bunda «**Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun**» degan eng asosiy tamoyil dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. Xozirda «Asaka» bank jami aktivlari 3,5 trillion so'mga, jami kapital 488,7 milliard so'mga etkazildi.



Iqtisodiyotning mustahkam tayanchi

Bank tizimi mustaqillik yillari davomida ishbilarmon va tadbirkorlarning ishonchli hamkori ekanligini namoyish etdi. U qisqa muddat ichida milliy iqtisodiyotning mustaxkam tayanchiga aylanib, o'zbekistonliklarning ishonchiga sazovor bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan «Asaka» bank ham mazkur tizimning muhim va etakchi qismidir. Dastlab «Asaka» bank respublikamizda sanoatning avtomobilsozlik tarmog'ini vujudga kelishida va uni jadal rivojlanishida asosiy moliyaviy hamkori bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, o'zining o'n olti yillik faoliyati davomida turli mulkchilik va ho'jalik yuritish shaklidagi mijozlar doirasini kengaytirishga erishdi. Hozirgi kunda bank tomonidan 30,3 ming nafar yuridik va 1 040,8 ming nafar jismoniy shaxslarga turli va sifatli bank xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda. Bank keng turdagi an'anaviy va zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi universal moliya-kredit muassasi sifatida respublikamiz va horijda mashhurdir. Bugungi kunda bank 26 filiali, 112 minibanki, 1338 jamg'arma, maxsus va sayyor kassasi orqali bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari bank tizimida «Asaka trans lizing» -lizing kompaniyasi, «Asaka investment» va «Asaka menedjment grupp» boshqaruv kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Ayni paytda «Asaka» bank tomonidan Inqirozga qarshi choralari dasturi talablarini bajarish, shu asosda rivojlanishga erishish, investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga etkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda xorijiy xamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida faol ish olib borilmoqda. Uning faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari shundan dalolat beradi. Jumladan, jahonning etakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «**Moody's Investors Service**» va «**Fitch Ratings**» tomonidan «Asaka» bank faoliyatiga yuqori reyting baholari berildi. Jahonning rivojlangan davlatlarida banklarning reyting ko'rsatkichlari darajasi pasayayotgan bir paytda xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston bank tizimiga yuqori reyting baholarini berilishi, muhtaram Prezidentimizning bank tizimiga bo'lgan e'tibori evaziga bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bank tizimining barqarorligidan dalolat beradi.

Shuningdek, «Asaka» bank “Bankir” (Ukraina) jurnali tomonidan o'tkazilgan xalqaro tanlovda ishtirok etib, “**MDH, Boltiqbo'yi, Gruziya banklari ichida eng ochiq va shaffof bank**” deb topildi. Bu, o'z navbatida, «Asaka» bankning yana bir bor ishonchli bank ekanligidan dalolat beradi va aholini unga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi, uning xalqaro maydondagi obro'sini yanada oshib borishi bilan birgalikda mamlakat ichida egallagan etakchi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.


Xizmat turlari kengaymoqda

Xayotning jadal oqimi O'zbekiston banklari oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bu esa doimiy ravishda ko'rsatilayotgan xizmat va mahsulotlar turlari ko'lamini kengaytirish va sifatini yaxshilab borishni talab etadi. Aks holda mamlakat moliya

bozoridagi keskin raqobat sharoitida muvaffaqiyatga erishish va egallagan mavqe'ni saqlab turish juda mushkul vazifadir. Bank xizmatlari bozoridagi raqobat sharoitida "Asaka" bank etakchilik mavqe'ini saqlagan holda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tezkorligini oshirishga, turlarini kengaytirishga va sifatini yanada yaxshilashga hamda qo'shimcha qulayliklar yaratishga intilmoqda. Jumladan, 35 infokiosk va 35 bankomat orqali mijozlar plastik kartochka yordamida kommunal xizmatlar, uyali aloqa, internet bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, plastik kartochka egalari, qaysi bank emitenti bo'lishidan qat'i nazar, o'z hisob raqamidagi pul mablag'lari holati bo'yicha ma'lumotlarni olish, pul mablag'larini plastik kartochkalarga yuklash imkoniyatiga egadirlar. SHu bilan birga, "MasterCard" va "Maestro" xalqaro plastik kartalari sohiblari «Asaka» bank bankomatlaridan naqd pul mablag'larini, o'z istaklariga ko'ra, milliy valyutamizda (rasmiy kurs bo'yicha) yoki AQSH dollarida olishlari mumkin. Bank tomonidan mijozlarga 825,9 ming dona plastik kartochka muomalaga chiqarildi, 7 863 ta terminal o'rnatildi, 6 639ta korxon va tashkilotda "ish haqi" loyihalari joriy etildi. 2011 yilda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan naqd pulsiz xisob-kitoblar hajmi 713 milliard so'mni tashkil qildi. Ayni chog'da xalqaro plastik kartochkalar ("MasterCard") orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini kengaytirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bank tomonidan chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 154,5 ming donaga etdi. Bank tomonidan «ASAKA Standard» rusumidagi kredit kartalari muomalaga chiqarildi. Mazkur kredit kartalari orqali uy-joy kommunal xizmatlari uchun to'lovlar, tovar va xizmatlar uchun to'lovlar, oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun shartnoma to'lovlari, to'y-tantanalar yoki dafn marosimlarini o'tkazish xarajatlarini qoplash va boshqa maishiy to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

"Asaka" bank mijozlarga xizmat ko'rsatishda yangi, zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy etishni maqsad qilgan. Jumladan, mijozlarga masofadan axborot xizmatlarini ko'rsatish sohasida "SMS-Banking" turi rivojlantirilmoqda. U uyali telefon orqali bank bilan matn formatidagi SMS-xabarlar orqali masofadan axborot xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. "Bank-mijoz" dasturiy kompleksi orqali pul-hisob hujjatlarini elektron shaklidan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish hajmini oshirishga yo'naltirilgan ishlar faol davom ettirilmoqda. Bank o'z mijozlariga hozirgi kun talabiga javob beradigan "Internet banking" xizmat turini ham taklif etmoqda. Mazkur xizmat turi mijozga o'z uyida turib, Internet orqali bankda mavjud bo'lgan hisob raqamidagi pul mablag'larini tasarruf etish imkonini beradi. Ya'ni, u kommunal xizmatlar yoki tovarlar uchun bo'lgan to'lovlarni xizmat ko'rsatuvchi tashkilot yoki savdo do'konlariga bormasdan, o'z uyida Internet orqali amalga oshirishi mumkin. Bank tomonidan mijozlarga infokiosk va bankomatlar orqali plastik kartalar yordamida "kreditlarni so'ndirish" xizmati joriy etilgani hammaga manzur bo'lmoqda. Shuningdek, bank mutahassislari tomonidan yangi xizmat turi bo'lmish «SMS To'lov» to'lov tizimi joriy etildi. Ushbu xizmat turi joriy etilishi natijasida mijozlar o'z uyali telefonlari yordamida barcha kommunal xizmatlar bo'yicha, uyali aloqa uchun, internet-provayderlar xizmati uchun, savdo-servis korxonalarida tovarlar va xizmatlar bo'yicha bo'lgan to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.


“Asaka” bank tomonidan aholi va ho’jalik yurituvchi sub’ektlarning bo’sh pul mablag’larini muddatli va jamg’arma depozitlarga jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yuridik va jismoniy shaxslar uchun 143,3 milliard so’m miqdorida depozit sertifikatlari muomalaga chiqarildi. O’tgan yilda 15 turdagi yangi omonatlar joriy etildi. Hozirda aholiga 85 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar taklif etilmoqda.



Investitsiyalar kelajak sari

“Asaka” bank butun faoliyati davomida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini, eksportbop va import o’rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini qo’llab-quvvatlashga va investitsion loyihalarni moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Iqtisodiyotning turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan ishbilarmonlar va tadbirkorlar “Asaka” bankning moliyaviy ko’magi yordamida sanoat, qishloq ho’jaligi, transport va kommunikatsiya, maishiy xizmat va boshqa sohalardagi loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirdilar. Bank tomonidan kreditlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirishning mukammal mexanizmi ishlab chiqilgan. 2011 yil davomida kredit qo’yilmalari hajmi 38,3 foizga o’sdi va 1,6 trillion so’mni tashkil qildi. Buning natijasida 26 ming nafarga yaqin yangi ishchi o’rinlari yaratildi. Investitsion kreditlar hajmi 1,1 trillion so’mni tashkil etdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo’naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko’paytirishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qaroriga muvofiq, bank tomonidan 158ta investitsion loyihani moliyalashtirish uchun 431,6 mlrd.so’m ekvivalenti miqdorida kreditlar ajratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2010 yil 29 dekabrda qabul qilingan Qarorga binoan esa, investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo’naltirilgan kreditlar umumiy hajmi 442,8 mlrd.so’mni tashkil etdi.



Bundan tashqari, “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida zamonaviy jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish maqsadida, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga doir loyihalarni moliyalashtirish davom ettirilib 17,0 milliard so’m miqdorida kreditlar berildi.

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirishni rag’batlantirish, eksportga mo’ljallangan raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko’paytirish, tarmoqlararo va ichki tarmoq sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, shu asosda aholi bandligi o’sishini ta’minlash va uning moddiy farovonligini oshirish maqsadida bank tomonidan 200,5 mlrd.so’m miqdoridagi 18 ta investitsion loyiha moliyalashtirildi.

Bank tomonidan 50 ta loyiha bo’yicha 26,9 milliard so’m miqdorida lizing xizmatlari ko’rsatildi. Bank lizing portfeli hajmi 88,3 milliard so’mni tashkil qildi. Bank lizing portfeli sanoat, qishloq ho’jaligi, transport va aloqa, qurilish, ijtimoiy soha va boshqa tarmoqlar bo’yicha diversifikatsiyalashtirilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining yanada o’sishi va mustahkamlanishi omillaridan biri - bu iqtisodiy nochor va bankrot deb e’lon qilingan korxonalar faoliyatini jonlantirish, ularga moliyaviy ko’mak berish va shu orqali ushbu korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini yo’lga qo’yish va rivojlantirishdan iboratdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni bu sohada asosiy dasturul amal bo’lmoqda. Banklar tomonidan iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini moliyaviy sog’lomlashtirish va qayta tiklash bo’yicha ko’rilayotgan choralar moliya sohasidagi novatorlik hisoblanib, mazkur faoliyat natijasida bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo’shimcha investitsiyalar kiritish, korxonalarni moliyaviy sog’lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o’rinlarini qayta tiklash

va yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon yaratilmoqda. "Asaka" bank tomonidan bu sohada muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan 45 ta bankrot korxonalarining 43 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 13 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Bank balansiga qabul qilingan bankrot-korxonalar mulki inventarizatsiya qilindi, texnologik asbob-uskunalar texnik ko'rikdan o'tkazildi, ta'mirlandi, yangi ehtiyot va butlovchi qismlar o'rnatildi. Injenerlik, elektr va gaz tarmoqlari qayta tiklandi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 89,6 milliard so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Korxonalarni boshqarish uchun yuqori malakali va tajribali menedjerlar hamda horijiy mutaxassislar jalb etildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 110,4 milliard so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 27,9 million AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi. 5 200 nafarga yaqin ish o'rinlari tiklandi va ishchi-xodimlar ish bilan ta'minlandi.

Tadbirkorlarning ishonchli hamkori

«Asaka» bank tomonidan yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga ijobiy shart-sharoitlar yaratishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. «Asaka» bank jamoasi **«Asaka bank – Tadbirkorlik taraqqiyotining mustahkam tayanchi»** shiori bilan ish olib bormoqda.

2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan esa "Asaka" bank tomonidan **"2011 yilning eng yaxshi loyihasi"** va **"Eng yaxshi qishloq loyihasi"** tanlovlari o'tkazildi. Tanlov shartlari ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borildi. Unda qatnashish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikamizning barcha viloyatlaridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan ko'plab arizalar kelib tushdi va Ishchi guruhi a'zolari tomonidan ularning barchasi diqqat bilan o'rganib chiqildi. Bunda asosiy e'tibor taqdim etilgan loyihalar bo'yicha yangidan yaratilayotgan ish o'rinlari soniga, uzoq va borish qiyin bo'lgan hamda mehnat resurslari zich joylashgan tumanlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining oziq-ovqat mahsulotlari va mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan loyihalariga qaratildi. Tanlov g'oliblari imtiyozli shartlarda kredit olish xuquqini beruvchi sertifikat va qimmat baho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan tasdiqlangan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturini ijrosini ta'minlash bo'yicha "Asaka" bank tomonidan 2011 yilda 420,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratilishi rejalashtirilgan edi. Davlat dasturini ijrosini ta'minlash maqsadida bank tomonidan 454,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida 13 ming nafardan ziyod yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Ajratilgan kreditlar yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishga, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya va boshqa ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va

xususiyy tadbirkorlikni rivojlantirishga asoslangan loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Yangi davr mutahassislari

Ish joylarini yuqori bilimli va har tomonlama etuk yosh mutaxassislar bilan ta'minlash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Kollej bitiruvchilarining bilim saviyasini yanada oshirish, ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash bo'yicha «Asaka» bank tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ibratli bo'lmoqda.

Jumladan, «Asaka» bank va Toshkent bank hisob-kredit kolleji o'rtasida o'quvchilarning "ustoz-shogird" tizimi asosida tanishuv amaliyotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash hamda o'quv jarayoniga yuqori malakali bank mutahassislarni jalb qilish bo'yicha uzoq muddatli hamkorlik shartnomasi tuzilgan bo'lib, ilmiy – amaliy seminarlar, uslubiy kengashlar, kasblar festivallari bank rahbariyati va mutahassislari ishtirokida o'tkazilmoqda.

2011 yilda «Asaka» bank rahbariyati yana bir xayrli ishga qo'l urdi. «Asaka» bank tomonidan Toshkent bank hisob-kredit kollejida "O'quv banki" tashkil etildi. O'quv banki «Asaka» bank hisobiga zamonaviy o'quv uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlandi. Mazkur maskanda kollejning yuqori bosqich o'quvchilari bank ishi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lab, o'z bilimlarini yanada oshirmoqdalar. Amaliy mashg'ulotlarni «Asaka» bankning yuqori malakali va tajribali mutaxassislari olib bormoqda.

«Asaka» bank O'quv bankida o'quvchilarga bo'lg'usi ish joyi bilan yaqindan tanishishga, kollejda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga imkoniyat yaratildi.

Bir so'z bilan aytganda, «Asaka» davlat — aktsiyadorlik tijorat banki jamoasi Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan e'lon qilingan "Mustahkam oila" yilida mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini, shu jumladan oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.

Bank Axborot xizmati